



## QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-may oylarida

### Raqamlar:

Qurilish ishlari  
hajmi -  
**1069,7 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
**3,7 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -  
**68,9 %**

Norasmiy sektor  
ulushi -  
**27,4 %**

Joriy yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyatida jami 1069,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 39,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,7 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,9 % yoki 737,4 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 27,4 % yoki 293,2 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni tashkil etdi.


Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - <b>39,1 mlrd.so'm</b></li><li>• o'sish surati - <b>117,1 %</b></li></ul>
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - <b>737,4 mlrd.so'm</b></li><li>• o'sish surati - <b>105,9 %</b></li></ul>
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi <b>293,2 mlrd.so'm</b></li><li>• o'sish surati - <b>110,7%</b></li></ul>

2019 yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyatida jami 1069,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 168,6 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilda jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 39,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 mlrd.so'mga ko'paydi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 737,4 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,6 mlrd.so'mga ko'paydi.


Norasmiy sektor hissasiga esa 293,2 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,7 mlrd.so'mga ko'paydi.







## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 762,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 134,9 mlrd so'mga ko'paygan.


Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 91,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 30,0 mlrd.so'mga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 215,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 63,7 mlrd.so'mga ko'paygan.

## Yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




## Yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,1 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 60,5 % (0,6 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 38,4 % (1,4 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 29,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,6 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 69,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,0 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 1,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi va 1,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,5 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1015,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,9 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foizga ko'paydi.






## QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Namangan shahri va Pop tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining 38,1 % dan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.






Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (270,4 mlrd.so'm yoki 111,4 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (110,5 mlrd.so'm yoki 101,6 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Kosonsoy tumanida (98,7 mlrd.so'm yoki 110,0 %) - Kosonsoy tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




### Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-may (mlrd,so'm)	2019 yil yanvar-may (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>901,1</b>	<b>1069,7</b>	<b>107,6</b>	<b>100,0</b>
1	Namangan shahar	218,1	270,4	111,4	25,3
2	Mingbuloq tumani	35,1	36,8	94,9	3,4
3	Kosonsoy tumani	81,5	98,7	110,0	9,2
4	Namangan tumani	92,6	109,7	107,4	10,3
5	Norin tumani	53,2	54,6	94,9	5,1
6	Pop tumani	60,5	67,7	102,0	6,3
7	To'raqo'rg'on tumani	43,8	57,0	117,8	5,3
8	Uychi tumani	98,0	110,4	101,6	10,4
9	Uchqo'rg'on tumani	67,1	76,3	102,8	7,1
10	Chortoq tumani	54,8	62,7	104,3	5,9
11	Chust tumani	52,6	71,0	123,2	6,6
12	Yangiqo'rg'on tumani	43,8	54,4	113,9	5,1

### Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 270,4 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 98,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan

yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga o'sdi, Pop tumanida 67,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga o'sdi, Uychi tumanida 110,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 % ga o'sdi. Chust tumanida 71,0 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,2 % ga o'sdi, Yangiqo'rg'on tumanida 54,4 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga o'sdi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 25,3 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 10,3 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,4 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 5,1 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 3,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida 5,1 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

## 2019 yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarining

### umumiy hajmda hududlarning ulushi

(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (0371) 230-84-85**